

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19508011>

Safarboyeva Sevinch Farxod qizi

ChDPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

sulaymonovas94@gmail.com+998931608379

Annotatsiya

Hozirgi kunda axborot almashinuvi sharoitida jamiyatda mustaqil fikrlaydigan, muammolarga ijodiy yechim topadigan, tanqidiy fikrlaydigan shaxslar zarur. Shu sababli ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olishi balki ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish davlat darajasidagi masalaga aylangan. Ijodiy fikrlashni rivojlanishi bolaning salohiyatini rivojlantirib, kreativ fikr egasi bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi to'siqlar, zamonaviy yondashuvlar va samarali usullar tahlil qilinadi hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida amaliy tavsiyalar beriladi.

Аннотация

В условиях современного обмена информацией обществу необходимы личности, способные мыслить самостоятельно, находить творческие решения проблем и критически оценивать происходящее. В связи с этим в системе образования формирование не только знаний у учащихся, но и развитие их творческого мышления стало задачей государственного уровня. Развитие творческого мышления играет важную роль в раскрытии потенциала ребёнка и формировании креативной личности. В статье анализируются препятствия на пути развития творческого мышления, современные подходы и эффективные методы, а также на основе передового педагогического опыта даются практические рекомендации.

Abstract

In the context of modern information exchange, society requires individuals who can think independently, find creative solutions to problems, and think critically. Therefore, in the education system, not only the acquisition of knowledge by students but also the development of their creative thinking competencies has become a matter of national importance. The development of creative thinking plays a significant role in unlocking a child's potential and shaping them into a creative individual. The article analyzes the obstacles to the development of

creative thinking, modern approaches, and effective methods, and provides practical recommendations based on advanced pedagogical experience.

KIRISH.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu ko'nikma o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatlari, ijtimoiy faolligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlariga zamin yaratadi. Iqtidorli bolalar-yurt kelajagi! Shunday ekan bolalardagi iqtidor, qobiliyat, salohiyatini rivojlantirishda bevosita ta'lim muassasasi, pedagog va oila hamkorligining ahamiyati katta. boshlang'ich sinf davri bolaning tafakkuri va qiziqishlari faol rivojlanadigan eng muhim bosqichidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga oid metodlar darslarda amalga oshirilsa o'quvchilarning darslarga qiziqishi ortadi, muloqot madaniyati va o'quv samaradorligi oshadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, innovatsion texnologiyalar va interfaol yondashuvlarni qo'llash hozirgi kunning dolzarb va zarur muammolaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar ta'lim siyosatida ijodkor, tashabbuskor, muammolarga yechim topa oladigan shaxsni shakllantirishni asosiy maqsad qilib olgan. Xususan, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ijodiy fikrlash masalalari ta'lim standartlariga integratsiya qilingan. Bu jarayonda STEAM yondashuvi, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim kabilar shular jumlasidandir. MDH davlatlari qatoridan Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini shakllantirish asosiy vazifalardan biriga aylanganligi belgilangan. BU davlat dars jarayonida muammoli ta'lim, loyiha va tadqiqot faoliyatida keng o'rin ajratgan. Qozog'iston Respublikasida ta'limni yangilash doirasida "yangilangan o'quv dasturlari" ni joriy etilib, unda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatilgan. Pedagogik va psixologik manbalarda qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning psixologik xususiyati bo'lib, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash bevosita mana shu xususiyatlarga bog'liq.

Respublikamiz olimlaridan Sh. Abdullayeva, M. Qulaxmetova, Ch. T. Shakirovalarning boshlang'ich sinflarda darslarni modulli innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish bo'yicha ishlarini e'tirof etish mumkin. Karne ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Ijodiy qobiliyatlarni kognitiv jarayonlar bilan bog'lab, ularni insonning yangi va asl g'oyalarni yaratish sifatida ta'riflagan.

- Ijodiy qobiliyatlarni baholash uchun turli test va metodlarni ishlab chiqib, bu testlarodatta divergent fikrlash (bir muammo uchun ko'plab yechimlarni topish qobiliyati) va konvergent fikrlash (bitta eng yaxshi yechimni topish qobiliyati)ni o'lchaydi. Bu yo'nalish ijodiy qobiliyatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

- Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ochiq va qo'llab-quvvatlovchi muhitlar

muhimdir. Masalan, bolalar va kattalarda ijodiy fikrlash imkoniyati bo'lib, xatolaridan qo'rqmasdan tajriba o'tkazishlari mumkin bo'lgan muhitda ko'proq ijodkor bo'lishadi.

- Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ta'lim muhim bo'lib, ijodkorlikni rag'batlantirish uchun ta'lim tizimida o'quvchilarga ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yaratish kerakdir

TAHLIL VA NATIJALAR.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirish usullari;

1. Ona tili - "Davomini o'ylab top" usuli : O'qituvchi matn yoki gapning bosh qismini beradi, o'quvchilar esa davom ettiradi. Masalan: "Bir kuni men juda g'alati voqeaga duch keldim..." O'quvchilar turli xil yakunlar o'ylab topadi. Natijada o'quvchilarda tasavvur, nutq boyligi va ijodkorlik rivojlanadi.

2. Matematika - "Bir masalaga 3 xil yechim" usuli: Birgina masalani turli usullar bilan yechish topshiriladi. Masalan: $12 + 8 = ?$ O'quvchi bir xil natijaga turli yo'l bilan erishadi. Natijada bolalarda moslashuvchan va kreativ fikrlash shakllanadi.

3. O'qish - "Qahramon o'rniga kirib fikr yuritish" : O'quvchilar asardagi qahramon o'rniga o'zini qo'yib javob beradi: "Sen shu qahramon bo'lsang, nima qilarding?"

Har bir o'quvchi turlicha javob beradi.

Bu usullar orqali bolalarda tahliliy, mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirishda fanlararo yondashuv muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar muammoli vaziyatlarga turlicha yondashishni o'rganadi, ularning faolligi va darsga qiziqishi ortadi. Natijada ta'lim jarayonining samaradorligi oshib, o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkuri shakllanadi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ijodiy fikrlashni shakllantirish kichik qadamlar bilan boshlanadi. Ko'pchilik ijodkorlikni tug'ma sifat deb hisoblaydi, biroq hozirgi tadqiqotlar bu o'rganiladigan ko'nikma ekanini ko'rsatmoqda.

Bolalarni o'z ijodiy qiziqishlarini o'rganishga undash ularni muammo yechuvchi va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi. Ijodiy fikrlash – yangi yondashuv va g'oyalarni topish qobiliyati bo'lib, u bolalarga bog'liqliklarni ko'rish, katta manzarani tushunish imkonini beradi. Shu sababli bu hayotiy muhim ko'nikmani bolalarda erta yoshdan rivojlantirish albatta zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'aniyeva M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash salohiyati. – Namangan, 2019.
2. Yusupova S. Interfaol metodlardan foydalanish asoslari. – Buxoro, 2020.
3. Abduvaliyev M. Pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.
4. Baxtiyorovna J.M "ertaklar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish" 2024.